

KITOBGA EXTIROM

Óteniyazova Sultwxan

*O'zMKÓMI Nukus filiali Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish sohasi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya. Milliy internet makonida elektron kutubxonalar ahamiyati. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yurutayotgan kutubxonalar va ularning ishlash faoliyati haqida. Kitob bozori konyukturasi va marketingi masalalari borasidagi mavjud muammolarni órganish, sohaning taraqqiyot yonalishlari va tendenciyalarini belgilash haqida sóz boradi.

Kalit so'z. Ijod, kutubxona, tadbirlar, madaniyat, yoshlar, sifat.

2014-yil 14-16 may kunlari royi zamin sayqali, kuhna va navqiron Samarqandda “Orta asrlar Sharq allomalarini va mutafakkirlarining tarixiy merosi,uning zamonaviy civilizaciya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusida xalqaro konferenciya bolib ótdi. 21-23 may kunlari esa butun mamlakatimiz boylab keng nishonlangan “Kitob bayrami” tadbirlariga guvoh boldik. Bu ikki madaniy voqiya ortasidagi boǵliklik kóngilga quvonch baxsh etadi. Bu-kitobga extirom.

Dunyoning ellikka yaqin davlatidan olimlar ishtirok etgan mazkur nufuzli xalqaro anjumanda nutq sózlagan Birinchi Prezidentimiz: “Bugun, oradan deyarli ming yil ótganidan keyin ham biz órta asrlarda yashab ijod qilgan, jahon civilizaciyasi rivojiga bebaho xissa qoshgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining daxosi, ilm-fanning túrli yonalishlaridagi izlanishlari va qomusiy bilimlari oldida hayratga tushamiz”,-deb takidlar ekan, tariyxning zulmat va jaholat hukumronlik qilgan davrlarida toqnashuv va nizolarning birinchi qurboni bilimlar manbayi hisoblangan bebaho kitoblar va qolyozmalar bólganini afsus bilan eslatib ótadilar.

Shunisi muhimki, dolǵali zamonlarning qiyinchiliklarga qaramasdan donishmand bobolarimiz ulkan ilmiy merosining anchagina qismi kitobsevar xalqimiz tomonidan saqlab qolindi.

“Bugun hech bir mubolaǵasiz aytish mumkin va buni men alohida qayd etmoqchiman,-dedilar Birinchi Yurtboshimiz,-óрта asr Sharq daholarining buyuk kashfiyotlaridan iborat ilmiy merosining chuqur qatlamlari hali toliq órganilmagan va óz tadqiqotchilarini kutmoqta. Ahir,faqatgina Ózbekistonning ózida kitob fondlarida 100 minftadan ziyod qolyozma asarlar saqlanmoqda. Ularning asosiy qismi YUNESKOning Madaniy meros royxatiga kiritilgan”.

Donishmandlik va bilim manbayi-kitoblar shaniga aytilgan bu dil sózlaridan bir hafta ótib, yurtimizda boshlangan ananaviy Respublika “Kitob bayrami” tantanalari

“Adabiyotga etibor-manaviyatiga kelajakka etibor” shiori ostida ótkazilganida chuqur majoziy mano bor edi.

Tadbirning kolamini uning tashkilotchilari nomini sanaboq tasavvur qilsa bóladi: Ózbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ózbekiston matbuat va axborat agentligi, Ózbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Ózbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Ózbekiston Respublikasi Xalq talimi vazirligi, Ózbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus talim vazirligi, Respublika Manaviyati targ'ibot markazi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, Respublika “Mahalla” hayriya jamoat fondini, “Ózdavkitobsavdotaminoti” masuliyatini cheklangan jamiyati. Qoroqolpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari ham shu royxatiga qoshiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yurutayotgan 108ta nashriyot, 1750ta matbaa korxonasi tomonidan har yili 2 ming nomdan ziyod, umumiy adadi 40 million nusxadan ortiq turli kitob maxsulotlarini nashr etiloyotganligini nazarga olsak, bu manaviyat bayramiga arzirlik tuhva norligiga ishonch hosil qilamiz.

Poytaxtda, sayil tarzida bolib ótgan “Kitob bayrami” G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida tashkil etildi. Unda poytaxt axolisi va mehmonlari sahoda faoliyat yuritayotgan yetakchi nashriyotlar tomonidan tashil etilgan kórgazma stendlarni tomosha qiladilar. Shu bilan birga, bog'ning turli joylariga ornatilgan telemonitorlarida nashriyotlar faoliyatini aks ettiruvchi hamda kitobxonlik madaniyatini targ'ibotiga bag'ishlangan videolavhalar namoyish qilindi.

Bayram kunlarida ishtirokchi nashriyotlar tomonidan songgi yillarda chop etilgan yangi kitoblarining takdimotlari, onlab taniqli va yosh istedodli adib va shoirlar matbaachilar bilan muloqatlar kitobxon va muallif diydorlashuviga aylanib ketdi.

“Kitob bayrami” doirasidagi Zulfiya nomidagi Davlat mukofati sovrindorlarining ijodiy uchrashuvlari hamda “Kitobdan yaqshi dost bólmas”, “Mojiza emasdir falakda oftob, mujiza aslida beminnat kitob”, “Odamiylik kitobga bolgan extiromdan boshlanadi”, “Kitobga mehr qoysangiz, u sizni albatta munosib taqdirlaydi”, “Kitob-eng yaqshi sov'ga” mavzularida intellektual viktorinalar ham ótkazildi.

Ikki kunlik bayram davomida Madaniyat va sport ishlari vazirligi yordamida jalb etilgan sanotkorlar, turli tanlovlar g'oliblari bolgan yosh iqtidor soxiblari ijrosidagi kuy va qoshiqlar hamda folklor dastalarining koncert dasturlari namoiysh etildi.

Respublika “Kitob bayrami” doirasida Ózbekiston Fanlar akademiyasi bilan hamkorlikda ózbek adabiyoti, noshirchiligi va matbaatchiligi yutuqlarini taxlil etish, bosma mahsulotlariga bólgan aholi ehtiyoji, kitob bozori konyukturasi va marketingi masalalari borasidagi mavjud muammolarni órganish, sohaning taraqqiyot yonalishlari va tendenciylarini belgilash maqsadida “Kitob-millatning bebaho manaviy merosi” mavzusidagi Ikkinchi ilimiy-amaliy konferenciya uyishtirildi.

Kótarinki ruhta ótgan bu shukuhli tadbirlarda ishtirok etar ekanman, kóngilmdan bir fikr kechdi. “Kitob bayramida”da endi dunyoga kelgan “chaqolaq” kitoblar bilan birga asrlar yuzini “muysafid” kitoblarini, kulyozmalarini ham namoiysh qilsak, qanday bólarkin? Bayramda ijodkorlar, noshirlar, matbaatchilar bilan bir qatorda nodir manbaalarni kóz qorachigidek asrab kelayotgan xazinabonlar-kutubxonachilar ham faol ishtirok etishsa, ayni muddao bolmaydimi?

Zero, muhtaram Birinchi Prezidentimiz “Bizning davrimizgacha yetib kelgan bu boy merosdan butun bashariyat ravnaqi yolida oqilona va samarali foydalanish-bu siz bilan bizning burchimizdir”, deb bejizga uqtirmaydilar.

Hozirgi paytda televedeniyeining kanallari kópaygani ham, internet va mobil aloqa axboratining asosiy manbaiy bolib qolgani ham to'g'ri. Biroq mamlakatni har jihatdan qudratli vosita ilm-fan ekanligini hech qaysimiz inkor etolmaymiz. Kitobdan ihlosi qaytgan, kunu tun “Game klub”larda kompyuter oyinlariga mukkasidan ketgan yoxud televizor oldidan jilmaydigan, kocha-kuyda qulo'giga radioplayerning simini taqib, ózini “zamonaviy” hisblayotgan bazi birovlar bilan mamlakatning buyuk kelajagini yaratib bolmaydi.

Kitob nafaqat ziyo maskanlarini yorituvchi nur, balki insonlarni kamolot sari yetaklovchi muhim manaviy xazina hamdir. Kitob insonga manaviy ozuqa beribrina qolmay, uning tafakkurini teranlashtirib, sog'lom mulohoza yurutishga orgatadi, kelajakka aniq maqsadlar bilan odimlashda mustahkam pillapoya vazifasini bajaradi. Shu boyisdan u insonning eng yaqin dosti hisloblanadi.

Har doim kishi kózini quvontiradigan bir manzara bor. Bu kitob oqiyotgan inson qiyofasidir. Etibor berganimiz, mutolaa qilayotgan odam chehrasida tashnachilik zuxir boladi. Kitob sehriga berilgan odam atrof-borlikni unutadi, mayda-chuyda tashvishlar bir chetda qoladi. Ayniqsa, ma'g'zi toq, yuksak saviyali, mazmunan puxta va chiroyli bezatilgan kitob har qanday odamni óziga tortadi.

XXI asrda axborot texnologiyasi taraqqiy etdi. Natijada endi birovning kitob mutolaa kilishi amrimahol, degan qarashlar paydo boldi. Bu holat kópchilik adabiyot ixlosmondlarini va zabardast adabiyotshunoslarni ham oylandirib kashfiyot qildi. Uzoq baxs-munozaralardan song esa keng jamoatchilik “Har qanday aqlni shoshiradigan kashfiyot kitob mutolaasiga tosqinlik qilolmaydi, aksincha ózgarishlarning sirsinoatini anglashda kitob asqotadi”, degan qatiiy qarorga keldi.

Mutolaaning nozik jihati shundaki, hech bir inson dunyodagi mavjud kitoblarning hammasini oqib bitirib bolmaydi. Buning imkoni yoq, qolabersa, umr ham yetmaydi. Afsuski, kópchilik kitob oqishni bilmaydi va nimani oqiyotganini tuzukroq tushinib ham yetmaydi. Bazi birovlar uchun esa oqish bu-dam olish, shunchaki vaqtni otkazish va ularga nimani (maqola, roman, sher, xabar va hokazo) oqish bari-bir, zerikarli bolmasa bas.

Demak, kitob oqilishining ózi kitobxonlik masalasini ijodiy baholash uchun yetarli emas. Bunda kitobxonning didi alohida ahamiyatga molik.

-Insonning shaxsiy kutubxonasidan qanday kitoblar orin egallaganiga qarab ham kishining manaviy darajasini aniqlash mumkin,-deydi taniqli yozuvchi va tarjimon Nemat Arslonov. Shaxsiy kutubxona kitob javonlari emas, shaxsiy kompyuter xotirasidan joy olishiga ha qarshiligimiz yoq. Ammo bu holda ayrim jihatlarga alohida toxtalishga to'g'ri keladi. Avvalo, turli veb-sayt, portal va boshqa internet resurslarida tashkil qilinayotgan elektron kutubxonalarda qanday adabiyotlar jamlanganligiga etibor qaratsak.

Milliy internet makonida elektron kutubxonalar u qadar kóp emas. Aynan ózbek tilidagi adabiyotlarni taklif qilivchilari undan ham oz. Badiiy va manaviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlarni esa, asosan, kitob shaklida mutolaa qilgan maqul. Chunki ekranda oqilayotgan asar inson his-tuygularni, hayolat dunyosidagi toliq tasir qila olmaydi. Ayniqsa, badiiy asar mutolaa qilinayotganda bu yaqqollik seziladi. Etibor bersangiz, kompyuter, xususan, internet foydalanuvchilariga ekran, asosan, kerakli malumotlarni oqish uchun xizmat qiladi. Kitob mutolaasi esa diqqatni jamlab, saxifalarni uzluksiz ravishta birma-bir oqib chiqishni nazarda tutadi. Bunday kunikma aksariyatimizda odatiy kitob mutolaasi asnosida shakillangan.

Yoshlarning kópchiligini kitob oqishga qiziqmayotganligini, umuman, kattalarning ham mutolaadan uzoqlashib borayotganligi haqida kópdan buyon gapiriladi. Usha "kitobga qiziqmay qoygan" bolalar ham, oqishga, ilm árganishga qiziqayotganlarni ham voyaga yetishayapti. Óz oldiga aniq maqsad qoyib, kelejakka dadil intilayotgan, bilim va kasb-hunar egallab, óz qobiliyatini va iqtidorini namoyon etayotgan yoshlarni kórganda bextiyor havasimiz ortadi. Ular alohida etirofga loyiq yutuqlarni qolga kiritishayabdi. Tayyor mutaxassis bóldim, deb korxon va tashkilotlar eshigini taqillatib kelayotgan yigit-qizlar bilan suhbatlashsangiz zamonaviy bilimlarni egallaganliklarini xiz etib, kónglingiz tóladi.

Biroq badiiy asarlar mutolaasi mavzuidan gap ochsangiz, kópchiligi kalovlanib qoladi. Shunda talabalik davrim yordamga tushadi. Aburaxmon Alimuhammedov degan domlada (oxiratlari obod bólsin) jahon adabiyoti fanidan dars berardi.

Bugingi yoshlarning kópchiligi badiiy kitob oqishga xafsala qilmayotganligi bor gap. Saviyasi past qoshiq va kinofilmlar kópayib ketkanligi singari past asarlar ham yomgirdan keyingi qoziqorinlar singari kitob dókonlari peshtaxatlarini egallab yotibdi. Chunki nashryotlarga pul bersangiz istalgan kitobni chiqarayapti. Bu esa odamlarning didini ótmaslashtiriyapti. Chuningdek, kitob dókonlarida bebaxolikdan sóz ochadigan, oshiqcha mushtumzorlik, zorovonlikdan baxs etadigan kitoblar ham tolib-toshib yotibdi. Kitob deyishga ham til bormaydigan bunday nasrlar qayoqlardandir taboro kóproq oqib kelayapti. Minglab nusxalarda kópaytirilib, hali

ózinı anglamagan, yaqshi-yomonning farqiga yetmagan, baloát bekatidan xatlamagan yoshlar qoliga tushib qolyapti.

Francuz yozuvchisi Marques de sadning “Foxishaxonadagi falsafa” nomli asarida “Biz katta urushlar qilib dunyoga egalik qilishimiz shart emas. Francuz asarlarining óliklari begona yurtlarga chiqib yotmasin. Ular (Franciya mustamlakaga aylantirilishini kózgalan mamlakatlar. Takid bizniki-N.Ġ) ni bóysindirish uchun menikiga oxshagan axloqsiz kitoblar tarqatib, qalbini egallang. Shunda ular óz-ózidan bizga bóysinadi”, deyiladi. Ha, mamlakatimizga oshkora baholanki targib qiluvchi kitoblarning kirib kelishidan kózlangan maqsad yoshlarimizning qalini va ongini egallashdir.

Bunday manaviy xurujlardan, ommaviy madaniyat niqobi ostida kirib kelayotgan turli illatlar tasiridan qanday himoyalanish mumkin?. Bunday bololardan bizni kitoblar, shu paytgacha yozilgan va yozilayotgan yaqshi asarlar himoya qila oladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ózining “Yuksak manaviyat-yengilmas kuch” nomli asarida takidlaganidek, bugun “Fikrga qarshi-firk, goyaga qarshi-goya, jaholatga qarshi-marifat bilan kurashish bilan har qachongidan kóra muhim amaliyat kasb etadi”. Yaniy soxta kitobni asl kitob maxv etadi. Uydirma sózini haqiqat yengadi, bexayolikdan esa marifat, manaviy gozallik va umumsoniy qadryatlarni targib yetuvchi asarlar qaytaradi. Kitob kórinishidagi baloga tosiq ham, oxirgi gov ham kitob, yani asl kitob.

Badan yuvilmasa kirlaganidek, qalbiz ham muntazam poklanishga mushtoq. Bu esa Xazrat Navoiy va boshqa mutafakkirlar asarlarini oqigan va uqqanda amalga oshadi. Navoiyning buyuk merosi har bir oila manaviyatida, farzandlar tarbiyasida, milliy salohiyatida katta axamiyatga kasb etadi.

Bugun yoshlarning kitob oqimayotganligini zamon zayliga, ularning internet bilan oshno ekanligiga aytishadi. Ammo internet kishini mutolaadan ayiruvchi vosita emas. Bu ular uchun imkoniyatlardan yanada kengaylanligidan dalolat. Biroq aksariyat yoshlar esa kompyuter oldida deyarli foydasiz mashg'ulotlar bilan band bólib, kitob mutolaasini unitib qoyishmoqda.

Buning sababi shundaki, oqituvchilar maktab oquvchilarini muzeylar, istiroxat boqlariga va tarixiy shaharlarga ekskursiyaga olib borishlarini anana tusiga kirgan. Lekin, afsuski, hali biror marta ularni kutubxonaga yoki kitob dónkonlariga olib borishganligini eshitmaganman. Xolbuki, oquvchilarni ushbu maskanlar bilan oshno etish, ularning kitobxonlik darajasini nazorat qilib borish, kitob mutolaasi bilan boqlik turli tadbirlar ótkazish, har bir oquvchining shaxsiy kutubxonasini yaratishga erishish talim muassasalarining birinchi galdagi vazifasi bólishi kerak.

Kitob mutolaasiga yoshlar etiborini sustligining yana bir sababi bizda kitoblar targiboti yetarli emas, desak mubolaqa bolmaydi. Masalan, kópgina kasalliklarga qanday dorilar davó ekanligini, dukonlarga qanday turdagi shirinliklar chiqayotganligini, telefonlarni yangi tariflarini hammamiz ayta olamiz. Lekin, qanday

yangi kitoblar chiqayotganligini soraab qolishsa, kópchiligimiz mum tishlab qolishimiz turgan gap. Chunki asarlar targ'iboti, kitob reklamasi deyarli yoq.

Hozir dunyo tajribasida mutolaaga órgatishning yangi yonalishi mavjud. Masalan, Finlandiya yoki bazi Evropa mamlakatlari maktablarida boshlang'ish sinfdan yoqori sinflargacha maxsus mutolaa kurslari oqitiladi. Oquvchilar bu kurslarda kitob oqish sanatini egallaydilar. Shu órinda aytib ótish lozimki, mutolaa ham, mutolaaga órgatish ham óziga hos sanat. Agar bolaga kitob oqish metodikasini órgatmas ekanmiz, u mutolaa sanatini ózlashtira olmaydi. Oqibatda oqigan narsasini tushunmaganidan keyin bolaga kitob nisbatan óz-ózidan qiziqish susayadi.

Adabiyotlar tizimi:

1. Багдасарьян Н.Г. Культурология: учебник для ВУЗов. М: Высшее образование, 2007.
2. Кластеры в сфере культуры: необходимость, формирование, и особенности создания. Сапрыкина А.Н. Россия, -Новосибирск: 2014.
3. Беньямин В. Произведение искусства в эпоху его технической воспроизводимости: Избранные эссе. Пер. с нем. -Москва, 1996.
4. Гончарик А. Политика в области творческих индустрий: зарубежный опыт и российские реалии. Электронный ресурс.